

**EMPLOYMENT LEVEL IN THE SERVICE SECTOR AND ITS SOCIO-ECONOMIC SIGNIFICANCE**

Associate Professor of the Department of "Real Economics" of SamISI, PhD

**Z.K.Rakhimov**

Tel: +998906578948

[r.zafar@list.ru](mailto:r.zafar@list.ru)

SamISI Master's student of the MI-124 group, specialty "Economics"

**J.Sh.Mamatazimov**

Tel: +998915424727

[jalol7151@gmail.com](mailto:jalol7151@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada xizmat ko'rsatish sohasida bandlik darajasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatining nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritib berilgan. Ma'lumotlar mualliflarning kuzatuvlari va adabiyotlar tahlili asosida tuzildi.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, aholi farovonligi, xizmatlar sohasi, islohot, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, samaradorlik, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish, barqaror iqtisodiy o'sish.

**Аннотация:** В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты уровня занятости в сфере услуг и ее социально-экономического значения. Информация основана на наблюдениях авторов и анализе литературы.

**Ключевые слова:** Социально-экономическая политика, благосостояние населения, сфера услуг, реформы, цифровая экономика, цифровые технологии, эффективность, предоставление социальных услуг и сокращение бедности, устойчивый экономический рост.

**Annotation:** The article examines the theoretical and practical aspects of employment in the service sector and its socio-economic importance. The information is based on the authors' observations and literature analysis.

**Keywords:** Socio-economic policy, welfare of the population, service sector, reforms, digital economy, digital technologies, efficiency, provision of social services and poverty reduction, sustainable economic growth.

### KIRISH

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasi eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda aholi daromadlarining ortishi xizmatlarga bo'lgan talabning oshishiga olib kelmoqda. Natijada xizmat ko'rsatish sohasi ko'plab mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning asosiy qismini tashkil etuvchi tarmoqqa aylanmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasi nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim omili, balki aholi bandligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sektori band aholining 60–70 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Bu esa xizmatlar sohasining mehnat bozoridagi ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Bugungi kunda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholining turmush darajasini oshirishda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi xizmat ko'rsatish sohasida bandlik darajasining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda xizmatlar sektorini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi xizmat ko'rsatish sohasida bandlik darajasini tahlil qilish, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini o'rganish hamda ushbu sohani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

### **Adabiyotlar tahlili**

Bir qator iqtisodchi olimlar kichik biznesda xizmatlar sohasining ahamiyatini iqtisodiy adabiyotlar va o'z ilmiy maqolalarida bayon qilishgan, bularga: F.Kotler, G.Armsrong, Dj.Sonders, V.Vong, M.Mak-Donald, E.Peyn, O.Y.Goyxman, A.Paul, Samuelson, D.William Nordhaus, McConnell, N.Gregory Mankiw, Y.A.Abdullaev, M.M.Muxammedov, M.Q.Pardayev, Q.D.Mirzayev, L.I.Galiyaxmetova, Y.N.Yeremina, F.U.Tursunov, S.B.Boboqulov, K.M.Xurramov, M.Boltayev, M.Qosimova, B.G'oyibnazarov <sup>1</sup> va boshqalarning ilmiy izlanishlarida atroflicha yoritib berilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan:

- Tahlil va sintez usuli – xizmat ko'rsatish sohasida bandlik darajasi hamda uning iqtisodiy ahamiyatini o'rganishda qo'llanildi.
- Statistik tahlil usuli – xizmatlar sektorining iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilishda foydalanildi.
- Taqqoslash usuli – turli mamlakatlar tajribasini o'rganish orqali xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish tendensiyalari aniqlab berildi.
- Tizimli yondashuv – xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy tizimdagi o'rni va uning boshqa tarmoqlar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlashda qo'llanildi.

Tadqiqot davomida iqtisodiyot nazariyasi, xizmatlar iqtisodiyoti hamda mehnat bozori bo'yicha ilmiy manbalar, statistik ma'lumotlar va ilmiy maqolalardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu sohaga transport, aloqa, savdo, bank-moliya, turizm, ta'lim, sog'liqni saqlash, mehmonxona xizmati, axborot texnologiyalari va boshqa ko'plab xizmat turlari kiradi.

Ko'plab mamlakatlarda xizmatlar sektori iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 60–75 foizi aynan xizmatlar sektoriga to'g'ri keladi.

<sup>1</sup> Котлер Ф., Армсронг Г., Сондерс Дж., Вонг В. Основы маркетинга. – М., СПб., К.: Издат. дом «Вильямс», 1999.-718 с.; Мак-Дональд М., Пэйн Э. Сфера услуг. Полное пошаговое руководство по маркетинговому планированию.- М.: КноРус, 2009.-448 с.; Гойхман О.Я. К вопросу формирования терминологии сферы сервиса // Теоретические и прикладные проблемы сервиса. -2007. №1. – С., 31-34.; A.Paul, Samuelson, D.William Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2009. – 744 p.; McConnell, Brue. Economics. 19th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014. – 984 p.; N.Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA, 2014. – 880 p. Абдуллаев Ё.А. Менеджмент: дарслик. – Тошкент. «Ўқитувчи», 2001 й; Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва даромадлари. Монография. «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи». 2021, 186 б.; Пардаев М.Қ. Хизматлар кўрсатиш тармоқлари иқтисодиётининг айрим муаммолари. –Т.: Наврўз, 2014. –264; Мирзаев Қ.Д., Султонов Ш.А. ва бошқалар Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Дарслик. Самарқанд. СамИСИ, 2022. –251 б.; Л.И.Галияхметова Благополучие, субъективное благополучие, удовлетворённость жизнью: проблема взаимосвязи. – Вестник Башкирского университета. 2015. Т. 20. №.; Е.Н.Уремина Личностные характеристики как предикторы субъективного благополучия личности с разной ситуацией трудовой занятости. Изв. Сарат. Ун-та. Нов. Сер. Сер. Акмеология образования. Психология развития. 2017. Т. 6, вып. 1 (21).; Ф.У.Турсунов Хизмат кўрсатиш соҳасида рақамли технологияларнинг аҳамияти. JMBM. Volume 1, ISSUE 4 (June) ISSN: 2181-3000, 132-134 pages. S.B.Boboqulov Raqamli iqtisodiyoti sharoitida innovatsion texnologiyalar asosida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Journal of marketing, bussines and management (JMBM)/SJIF FACTOR: 5.57. VOLUME 2, ISSUE 7 (November) ISSN: 2181-3000 9-14 p.. K.M.Xurramov Raqamli texnologiyalar asosida tadbirkorlikni rivojlantirish. “Экономика и социум” №11 (138)-1 2025. 665-667 b. Boltabayev M., Qosimova M., Ergashxodjayeva Sh., G'oyibnazarov B., Samadov A., Otajonov Sh. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: TDIU, 2011. – 333 bet.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi 5 yil ichida jahon xo'jaligida xizmatlar sohasi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan ko'ra ko'proq o'sib bormoqda (1-jadval).

### 1-jadval.

#### 2020-2024 yillarda yalpi jahon xo'jaligi mahsuloti tahlili<sup>2</sup>

| t/r | Ko'rsatkichlar    | Yillar (foizda) |      |      |      |      | 2024 yilda<br>2020 yilga nisbatan |       |
|-----|-------------------|-----------------|------|------|------|------|-----------------------------------|-------|
|     |                   | 2020            | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | +;-                               | %     |
| 1.  | Qishloq xo'jaligi | 4,3             | 4,2  | 4,1  | 4,0  | 4,0  | -0,3                              | 93,0  |
| 2.  | Sanoat            | 26,5            | 26,2 | 26,0 | 26,0 | 26,0 | -0,5                              | 98,1  |
| 3.  | Xizmatlar sohasi  | 64,8            | 65,4 | 65,9 | 66,1 | 66,2 | 1,4                               | 102,2 |

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasi eng katta ulushga ega bo'lib, global YaIMning taxminan 66 foizga yaqinini tashkil etadi. Sanoat sektori o'rtacha 25–26 foiz atrofida bo'lib, ishlab chiqarish, energetika va qurilish tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi sektori global miqyosda nisbatan kichik ulushga ega bo'lib, taxminan 4 foizni tashkil qiladi, ammo ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich ancha yuqori bo'lishi mumkin.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra 2024 yilda AQSH, Xitoy, Germaniya, Yaponiya va Buyuk Britaniyaning yalpi ichki mahsulotida xizmatlar sohasi, sanoat va qishloq xo'jaligining ulushi quyidagicha (2-jadval).

2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, AQSH postindustrial iqtisodiyot. Xizmatlar sektori juda yuqori ulushga ega. Xitoy sanoat sektori yetakchi, ishlab chiqarish iqtisodiyotning asosiy tayanchi hisoblanadi, lekin shunda ham xizmatlarning ulushi sanoat tarmoqlaridan ko'ra katta. Germaniya yevropa ittifoqidagi kuchli sanoat iqtisodiyotlaridan biri, ammo xizmatlar ham katta ulushga ega. Yaponiyada yuqori texnologiyali sanoat va rivojlangan xizmatlar sektori mavjud. Yaponiya sun'iy intellektidan keng foydalangan holda xizmatlarning ulushini samarali oshirishga erishmoqda. Buyuk Britaniyada xizmatlar, ayniqsa moliyaviy xizmatlar iqtisodiyotda ustunlik qilmoqda.

### 2-jadval.

#### 2024 yilda AQSH, Xitoy, Germaniya, Yaponiya va Buyuk Britaniyaning yalpi ichki mahsuloti<sup>3</sup> (foizda)

| t/r | Davlatlar       | Qishloq xo'jaligi | Sanoat | Xizmatlar sohasi |
|-----|-----------------|-------------------|--------|------------------|
| 1.  | AQSH            | 1,0               | 20,0   | 79,0             |
| 2.  | Xitoy           | 7,0               | 40,0   | 53,0             |
| 3.  | Germaniya       | 0,8               | 28,0   | 71,0             |
| 4.  | Yaponiya        | 1,0               | 29,0   | 70,0             |
| 5.  | Buyuk Britaniya | 0,6               | 18,0   | 72,0             |

Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyot rivojlangan sari xizmatlar sektorining YaIMdagi ulushi ortadi, qishloq xo'jaligi ulushi esa kamayadi. Bu jarayon iqtisodiyotning postindustrial bosqichga o'tishini ifodalaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ham xizmatlar sohasining ulushi ortib bormoqda. Shu bilan birgalikda, xizmatlar sohasida savdo, turizm, logistika va aloqa sohalarining o'sib borishi bilan birga ushbu sohada bandlik darajasi ham ortmoqda (3-jadval).

### 3-jadval.

#### O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti tarkibida savdo, turizm, logistika va aloqa sohalarining ulushi va xizmatlar sohasida bandlik darajasi<sup>4</sup>

<sup>2</sup> <https://www.statista.com/> - Jahon statistikasi sayti ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

<sup>3</sup> <https://data.worldbank.org/> - Jahon banki ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqildi.

| t/r | Tarmoqlar                                        | YaIMdagi ulushi (%) | Bandlikdagi ulushi (%) |
|-----|--------------------------------------------------|---------------------|------------------------|
| 1.  | Savdo (ulgurji va chakana savdo)                 | 8-9                 | 10-12                  |
| 2.  | Turizm (mehmonxona va ovqatlanish xizmatlari)    | 3-4                 | 3-5                    |
| 3.  | Logistika va transport xizmatlari                | 5-6                 | 6-7                    |
| 4.  | Aloqa va axborot-kommunikatsiya xizmatlari (ICT) | 2,6-2,7             | 2-3                    |

Mamlakatimizda savdo sohasi xizmatlar sektorida eng katta ulushlardan biriga ega bo'lib, aholining katta qismini ish bilan ta'minlaydi. Ayniqsa chakana savdo mamlakat ichki iste'mol bozorining asosiy drayveri hisoblanadi. O'zbekiston geografik jihatdan Markaziy Osiyoning tranzit markazlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli transport va logistika xizmatlari iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi hamda YaIMning 5 foizdan ortiq qismini tashkil etadi. So'nggi yillarda vizasiz rejimlar, turistik infratuzilmaning rivojlanishi va marketing siyosati natijasida turizm sektori tez rivojlanmoqda. Bu esa xizmatlar eksporti va bandlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Axborot-kommunikatsiya xizmatlari ulushi hozircha kichik bo'lsa-da, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi sababli ushbu sektor iqtisodiyotning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasida bandlik darajasining oshishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, ushbu sohada yangi ish o'rinlari yaratilishi aholi daromadlarining oshishiga hamda turmush darajasining yaxshilanishiga olib keladi.

Bundan tashqari, xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Masalan, transport, logistika va axborot texnologiyalari xizmatlari sanoat va savdo tarmoqlarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi hududiy iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, turizm, mehmonxona xizmati va savdo tarmoqlarining rivojlanishi hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi.

Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- xizmatlar sifatini oshirish;
- zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- malakali kadrlar tayyorlash;
- xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish;
- innovatsion xizmat turlarini kengaytirish.

#### **Xulosa**

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning rivojlanishi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi bandligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasida bandlik darajasining oshishi aholi daromadlarining ko'payishiga, ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli xizmatlar sektorini rivojlantirish, ayniqsa kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. A.Paul, Samuelson, D.William Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2009. – 744 p.
2. McConnell, Brue. Economics. 19 th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014. – 984 p.; N.Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA, 2014. – 880 p.
3. Абдуллаев Ё.А. Менежмент: дарслик. – Тошкент. «Ўқитувчи», 2001 й;
4. Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва

- даромадлари. Монография. «Инновацион ривожланиш наприёт-матбаа уйи». 2021, 186 б.
5. Пардаев М.Қ. Хизматлар кўрсатиш тармоқлари иқтисодиётининг айрим муаммолари. –Т.: Наврўз, 2014. –264.
  6. Мирзаев Қ.Д., Султонов Ш.А. ва бошқалар Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Дарслик. Самарқанд. СамИСИ, 2022. –251 б.
  7. Л.И.Галиахметова Благополучие, субъективное благополучие, удовлетворённость жизнью: проблема взаимосвязи. – Вестник Башкирского университета. 2015. Т. 20. №.
  8. Е.Н.Уремина Личностные характеристики как предикторы субъективного благополучия личности с разной ситуацией трудовой занятости. Изв. Саратов. Ун-та. Нов. Сер. Сер. Акмеология образование. Психология развития. 2017. Т. 6, вып. 1 (21).
  9. Boltabayev M., Qosimova M., Ergashxodjayeva Sh., G'oyibnazarov B., Samadov A., Otajonov Sh. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Т.: TDIU, 2011. – 333 bet.
  10. К.М.Хуррамов Raqamli texnologiyalar asosida tadbirkorlikni rivojlantirish. “Экономика и социум” №11 (138)-1 2025. 665-667 б.
  11. <https://data.worldbank.org/> – Jahon banki sayti.
  12. <https://www.statista.com/> - Jahon statistikasi sayti.
  13. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413> – Qonunchilik ma'lumotlari milliy elektron bazasi.
  14. <https://stat.uz/uz/> – O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi.
  15. [www.jmbm.uz](http://www.jmbm.uz) – Journal of marketing, business and management (JMBM).